



Pedagogical Conditions for Developing Students’ Adaptation to Socio-Pedagogical Activities

“Teacher of the Department of Pedagogy at Bukhara State University

Amonov Mirjon Namozovich

Abstract. In this article, the author presents his thoughts and observations on the formation of today's students' adaptation to future socio-pedagogical activity, his views, conclusions and recommendations on the concept of socio-pedagogical activity.

Keywords: socio-pedagogical activity, social adaptation, social pedagogical personality, social environment, social knowledge, social assistance, social professional value.

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kundagi talabalarning kelajakdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvini shakllantirish haqidagi fikr va mulohazalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat tushunchasi haqidagi qarashlari, xulosalari va tavsiyalari keltirilib otildi.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy pedagog shaxsi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy bilim, ijtimoiy yordam korsatish, ijtimoiy kasbiy qadriyat.

Kirish. Talaba yoshlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, ularni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

- 1) boshlang‘ich kasbiy ta‘lim;
- 2) oliy pedagogik ta‘lim;
- 3) mustaqil-malakaviy ta‘lim (mustaqil ta‘lim yoki malaka oshirish ta‘limi).

Talabalar boshlang‘ich ta‘lim negizida „Ijtimoiy pedagogika“ asoslari asosan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida berilib bunda bo‘lajak mutaxassislar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ijtimoiy-pedagogik faoliyatning umumiy mazmunini, yo‘nalishlari, uning samaradorligiga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar va psixologik omillar, shakl va metod vositalarni o‘rganadilar.

Oliy pedagogik ta’lim negizida esa ijtimoiy-pedagogik faoliyatning tashkil etilish tarixi, ijtimoiy muhitda shaxs rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari, fanning kategoriyalari, sohada olib kelingan yangiliklar tadqiqotlar haqida o‘rganiladi va amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishadi. Mustaqil-malakaviy ta’lim esa mutaxassisni sohada ro‘y berayotgan yangiliklar, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga doir ilg‘or texnologiyalar, metodlar va yondashuvlar bilan doimiy tanishib borishadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik faoliyatga juda yaqin bo‘lib, undan ajralib turadigan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy-pedagogik faoliyat -bu ma’lum tajribani o‘qitish orqali o‘tkazish va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi sanaladi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq uyg‘onish tarixida ijtimoiy pedagogika tushunchalari Abdulla Avloniy, Farobiy kabi olimlarning asarlarida ko‘p tilga olingan. Xususan, Farobiy ijtimoiy pedagogikani mustaqil fan sifatida ajratmagan, uni siyosiy fanlar qatoriga kiritgan. Mustaqil fan sifatida ijtimoiy pedagogika XVII asrda Yan Amon Komenskiyning „Buyuk didaktika“ asaridan so‘ng ajralib chiqqan. Bu asarda asosan pedagogikaning qonuniyatlari aniq ochib berilgan. G‘arb mamlakatlari olimlaridan asosan Adolf Disterveg, Pestalotssi, Jan Jak Russo kabi olimlar o‘z izlanishlari yo‘lida ijtimoiy pedagogikaning bir qancha yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganganlar. Russo asosan shunday fikr bildiradi: „Bolalar kata bo‘lishidan oldin, bola bo‘lishlari kerak“ -dir. U bola tarbiyasini tabiat bilan birgalikda uyg‘un holda amalga oshirish kerak degan qarashni ilgari suradi. Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada Talabalarning



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlari o’rganildi. Ushbu mavzuga oid izlanilgan adabiyotlar, fikr-mulohazalar, ilmiy ishlarni tahlil qilish ishlari olib borildi. Tahlil va natijalar. Talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga moslashtirishda bir qancha vazifalar belgilangan. Masalan: - oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo’shadigan, mehnat bozorida o’z o’rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash; - oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog’liqligini nazarda tutuvchi konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; - talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks choralar-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilashga oid. Bugungi kunda ijtimoiy pedagogika, pedagogikning yangi sohalaridan biri bo’lib, "ijtimoiy-pedagogik faoliyat"ning yangi shakllanishiga oid bo’lgan metodlar tizimi haqida so’zlash uchun ham zamon keladi. Shu sababli, ijtimoiy pedagog amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanadi. Talabalarga zamonaviy ta’lim tizimi’ning ijtimoiy xarakteri xususida tushunchalar berish orqali va ijtimoiy pedagogning ta’lim tizimida olib boradigan faoliyati insonparvarlik tamoyiliga asoslanishini izohlab berish kabi vazifalar orqali tushunchalar ham berilib kelinyapti. Ijtimoiy tarbiya Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari Ijtimoiy-pedagogik faoliyat Ijtimoiy ta’lim

Xulosa. Ushbu tadqiqot talabalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvi, ijtimoiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish hamda mazkur jarayonning ta’lim



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

tizimidagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga qaratildi. Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy manbalar, pedagogik yondashuvlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda qo‘lyozmalari tahlil qilindi. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy faolligi, kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatga moslashuvini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘sha oladigan, raqobatbardosh hamda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalari belgilandi. Shu bilan birga, oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqot faoliyatining uzviy integratsiyasini ta‘minlash, ularning natijalarini amaliyotga va tijoratlashtirish jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etishning muhimligi asoslandi. Bundan tashqari, talaba-yoshlarning ma‘naviy, axloqiy va kasbiy rivojlanishi uchun qo‘shimcha pedagogik sharoitlar yaratish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ta‘lim-tarbiya jarayoniga kompleks yondashuvni tatbiq etish zarurligi ta‘kidlandi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun qulay infratuzilmaviy va pedagogik sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi qayd etildi qilib aytganda, talaba-yoshlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda mustaqil fikrlash, jamoa bilan ishlash, pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va ijtimoiy muammolarga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim samaradorligini oshiradi. Olib borilgan barcha ilmiy izlanishlar talabalarning o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi, kasbiy moslashuv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishi hamda jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashiga xizmat qiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. Egamberdiyeva.N Ijtimoiy pedagogika darslik .T.2009
3. Xo‘jayev. B. Q., Juraev.B. T., „Pedagogik faoliyatga kirish” monografiyasi B. Q.Xodjayev, B. T. Juraev.- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.- 148b
4. Amonov, Mirjon Namozovich. "O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini loyihalash va mustaqil tayyorlash muammolari." *Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar* 2.3 (2021): 22-
5. Ходжиева М. Ш. Совершенствование аксиологического подхода к педагогической деятельности у будущих учителей //Научный журнал. – 2020. – №. 9 (54). – С. 43-45.
6. Yoshiyena U. M. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 24-26.
7. Tojiyevich J. B. THE DEVELOPMENT OF THE ART OF MUSIC IN THE PERIOD OF THE SOMANIDS ERA //SHOKH LIBRARY. – 2025. – Т. 1. – №.